

KAPITAL BOZORINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY INVESTITSIYA HISOBVARAG'INING O'RNI

Madrimov Shuhrat Bahodir o'g'li

“Asakabank” AJ Investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i

Vahobov Anvar Abdumannop o'g'li

“Asakabank” AJ Investitsiyalar boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Maqolada kapital bozorini rivojlantirish va uning jozibadorligini oshirishda shaxsiy investitsiya hisobvarag'ining o'rni yoritib berilgan. Ma'lumki, bank omonatlariga nisbatan yuqori daromadlilikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarga investorlarni o'ziga jalb qila oladi. Shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochish hamda soliq imtiyozlarini olish orqali qimmatli qog'ozlardan yuqori daromad olish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Kalit so'zlar: kapital bozori, shaxsiy investitsiya hisobvarag'i, qimmatli qog'ozlar, investor, soliq imtiyozlari.

Аннотация

В статье освещается роль персональных инвестиционных счетов в развитии рынка капитала Республики Узбекистан и повышении его привлекательности. Известно, что инвесторов могут привлечь только ценные бумаги с высокой доходностью по сравнению с банковскими депозитами. Вопрос открытия индивидуального инвестиционного счета и получения высокой доходности по ценным бумагам за счет получения налоговых льгот становится сегодня все более актуальным.

Ключевые слова: рынок капитала, индивидуальный инвестиционный счет, ценные бумаги, инвестор, налоговые льготы.

Abstract

The article highlights the role of personal investment accounts in developing the capital market of the Republic of Uzbekistan and increasing its attractiveness. It is known that only securities with high yields compared to bank deposits can attract investors. The question of opening a personal investment account and obtaining high returns on securities by receiving tax benefits is becoming more and more important today.

Key words: capital market, personal investment account, securities, investor, tax benefits.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda kapital bozorini yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish, investorlarni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish, chet el investorlari uchun mahalliy fond bozorida qatnashish tartibini

soddalashtirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-291-son¹ qarorida soliq to‘lovchining soliq davri davomida jami mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi ish haqi va boshqa daromadlaridan mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan daromadlarini ularni o‘n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilgan.

Umuman olganda, shaxsiy investitsiya hisobvarag‘i (SHIH) deganda mijozning qimmatli qog‘ozlari va mablag‘lari hisobini yuritish uchun investitsiya vositachisi tomonidan ochiladigan hisobvaraqlar tushuniladi. Amaliyotda SHIHga jalb qilingan mablag‘lar keyinchalik quyidagi yo‘nalishlarga investitsiya qilinadi: aksiyalarga, obligatsiyalarga, investitsiya fondlarining paylariga, chet el valyutasiga, fyuchers va opsiyalariga.

ADABIYOTLAR SHARHI

T.V. Goncharenko va K.N. Podgornayalar o‘zlarining izlanishlarida kapital bozoridagi shaxsiy investitsiya hisobvarag‘ining o‘rnini quyidagicha yoritadilar:

“Moliya bozorida hukmronlik qiluvchi bank sektori moliya bozori vositalaridan faol foydalanmasdan turib, mamlakatda kreditlashning zarur hajmini ta‘minlay olmaydi. Shu sababli uzoq muddatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun mablag‘larni jalb qilish, kapital bozori samaradorligini oshirish va mamlakat aholisining investitsiya faolligini rag‘batlantirish zarur. 2015-yil 1-yanvardan boshlab Rossiya Federatsiyasida moliya bozoriga yangi vosita – SHIH (shaxsiy investitsiya hisobvarag‘i) kiritildi. Uning qo‘llanilishi tufayli investorlar soliq imtiyozlarini olishlari mumkin.”

G.K. Devlet-Geldy hamda A.A. Armidonovalar tomonidan 2016-yilda “Гуманитарный вестник” jurnalida chop etilgan “Shaxsiy investitsiya hisobvaraqlari – Rossiya moliya bozorining yangi vositasi” (“Индивидуальные инвестиционные счета – новый инструмент российского финансового рынка”) nomli maqolada quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

“Bunday hisobvaraqlardan foydalanish amaliyoti dunyoning ko‘plab mamlakatlarida azaldan mavjud. Xususan, Qo‘shma Shtatlarda shunga o‘xshash sxema 1974-yildan beri ishlamoqda va hozirgi kunga qadar Amerika bozorida umumiy qiymati 7,2 trillion AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan 50 millionga yaqin shaxsiy investitsiya hisobvarag‘i ishlamoqda. Buyuk Britaniyada SHIHlar taxminan 15 yildan beri mavjud. Bu vaqt ichida qirollikdagi 15 million SHIHlarda to‘plangan pul miqdori taxminan 450 milliard funt sterlingni tashkil qiladi. 2014-yildan boshlab shunga

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6590025?ONDATE=04.09.2023>

o'xshash loyiha Yaponiyada ishlay boshladi. Yaponiyada bitta SHIHga 100 000,00 AQSH dollari miqdorida pul kiritilishi mumkin. Natijada, 2 yildan ortiq vaqt ichida yapon investorlari 6,5 milliondan ortiq shaxsiy investitsiya hisobvaraqlari ochishdi.”

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy mushohada, kuzatish, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan. Ushbu maqolada mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirish hamda uning jozibadorligini oshirishda shaxsiy investitsiya hisobvarag'ining o'rnini yoritib berish maqsad qilingan. Shuningdek, bunda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, Rossiya Federatsiyasi moliya bozorida shaxsiy investitsiya hisobvarag'i tizimi tajribasi ko'rib chiqiladi. Rossiya Federatsiyasi moliya bozorida oddiy brokerlik hisobvarag'i bilan SHIH foydalanuvchilarga (mijozlarga) beriladigan soliq imtiyozlariga ko'ra farq qiladi. Xususan, SHIH foydalanuvchilariga quyidagi imtiyozlar berilgan:

1. Foydalanuvchining SHIHga investitsiya maqsadida kiritilgan mablag'lari orqali amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan daromadidan soliq to'lanmaydi (Rossiya Federatsiyasida 13%).

2. SHIHga investitsiya maqsadida kiritilgan mablag'lardan daromad solig'i to'lanmaydi, agar SHIHga kiritilgan mablag'lar 3 yil davomida qayta yechib olinmasa. Aks holda, daromad solig'i bilan birgalikda penya to'lovlari ham amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, 2024-yil 1-yanvarga qadar ro'yxatdan o'tgan SHIHlar uchun yuqoridagi 2 ta imtiyozdan faqat bittasidan (tanlov asosida) foydalanish mumkin bo'lgan.

2024-yildan Rossiyada SHIHning yangi turi muomalaga kiritilgan bo'lib, u SHIH-3 deb ham nomlanadi. Mazkur hisobdan foydalanish orqali foydalanuvchi (investor) “uzoq muddatli investitsiyalar uchun” chegirma olish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni investor oddiy SHIHdan farqli ravishda endilikda yuqorida sanab o'tilgan 2 ta imtiyozdan bir vaqtning o'zida foydalanishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi hududida 2024-yil 1-yanvarga qadar ro'yxatdan o'tgan SHIHlar hamda keyin ro'yxatga olingan SHIH-3 lar o'rtasidagi asosiy farqlar:

1. Bir investorda har xil banklarda jami 3 tagacha SHIH-3 ochish imkoniyati mavjud. Oldingi amaliyot bo'yicha investor faqat 1 dona SHIHni ro'yxatdan o'tkazishi mumkin bo'lib, yangi SHIH ochish uchun avvalgisi yopilishi talab etilgan. Hozirda, Rossiyada avvalgi tipdagi SHIHlarni yangi tipdagi SHIH-3 ga o'zgartirish tartibi ishlab chiqilishi kutilmoqda.

2. SHIH-3 ga kiritiladigan investitsiyaning maksimal miqdori chegaralanmagan (oldingi tipdagi SHIHga yiliga 1 mln. Rossiya rubligacha bo'lgan mablag' kiritish imkoniyati mavjud bo'lgan).

3. Yuqoridagi 2 ta imtiyozdan bir vaqtda foydalanish uchun SHIH-3 lar ro'yxatdan o'tish muddatiga qarab muayyan muddatga ochilishi lozim. SHIH-3 da pul saqlashning minimal muddati belgilangan. Xususan:

1-jadval

Rossiya Federatsiyasida SHIH hamda keyin ro'yxatga olingan SHIH-3lar o'rtasidagi asosiy farqlar¹

T/r	Ro'yxatdan o'tish muddati	Investitsiyaning muddati
1.	2024 – 2026-yillar oralig'ida ochiladigan SHIH-3	kamida 5 yil
2.	2027-yilda ochiladigan SHIH-3	kamida 6 yil
3.	2028-yilda ochiladigan SHIH-3	kamida 7 yil
4.	2029-yilda ochiladigan SHIH-3	kamida 8 yil
5.	2030-yilda ochiladigan SHIH-3	kamida 9 yil
6.	2031-yildan keyin ochiladigan SHIH-3	kamida 10 yil

Agar foydalanuvchi tomonidan investitsiya mablag'lari yuqorida belgilangan muddatdan oldin SHIH-3 dan chiqariladigan bo'lsa, ushbu foydalanuvchiga mazkur SHIH-3 uchun soliq imtiyozlari taqdim etilmaydi. Biroq, Rossiya hukumatining qarori bilan belgilangan og'ir turdagi davolanish xarajatlari uchun sarflanadigan mablag'lar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy investitsiya hisobvarag'ining holati

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi, 23-bandiga muvofiq, soliq to'lovchilar ish haqi va boshqa daromadlarining mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan qismiga soliq solinmaydi.

Bunda quyidagi cheklovlarga amal qilish talab etiladi:

1. SHIHga kiritiladigan pul miqdorining maksimal chegarasi bir soliq davri davomida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yuz baravaridan oshmasligi lozim (hozirgi kunda 105,0 mln so'mga teng).

2. To'lovlar o'sib bormaydigan tartibda to'langan bo'lishi hamda bir yo'la to'lanadigan to'lovlar shartnomaning amal qilish muddati boshlangan kundan e'tiboran o'n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan amalga oshirilishi kerak.

Yuqoridagi shartlar buzilgan yoki shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan hamda pul mablag'lari to'liq yoki qisman qaytarilgan taqdirda, qaytariladigan mablag'larga to'lov manbaida soliq solinishi lozimligi belgilangan.

¹ Muallif ishlanmasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Mijoz	Shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochish uchun investitsiya vositachisiga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JSHSHIR) ko'rsatgan holda ariza va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Investitsiya vositachisi	Shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochish va yuritish bo'yicha mijoz bilan bir yil muddatga shartnoma tuzadi hamda unga shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochadi.	Bir kun ichida
3-bosqich	Mijoz	Ish haqi va boshqa daromadlarining bir qismi hisobidan shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga badallar o'tkazib boradi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Investitsiya vositachisi	Investitsiya vositachisi / aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi orqali yoki mijozning o'zi tomonidan shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini yuritilishini hamda tegishli operatsiyalar amalga oshirilishini ta'minlaydi.	Mijozning talabiga ko'ra
5-bosqich	Investitsiya vositachisi	Shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga investitsiyadan olingan daromadlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqadi va soliq organlariga yuboradi hamda mijozga sof daromadni o'tkazib beradi.	Soliq to'lash muddatlarida
6-bosqich	Investitsiya vositachisi	Mijozning shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini yopish to'g'risidagi arizasiga muvofiq uning shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini yopadi.	Mijozning talabiga ko'ra o'n kun ichida

1-rasm. Shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochish va undagi mablag'larning hisobini yuritish sxemasi¹

SHIH bilan bog'liq harakatlar "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida Nizom"ga (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi 331-son² qaroriga ilova) muvofiq amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini amaliyotga joriy etish bir qator imkoniyatlarni ta'minlaydi.

1-holat

Investor 2024-yil 4-noyabr sanasida "O'zR TXB" AJ oddiy aksiyalarini ish haqidan 100,0 mln so'm miqdorida investitsiya kiritdi (7 000 dona oddiy aksiya, har biri 14 000 so'mdan sotib olingan, broker va fond birjasining komissiyasi hisobga olingan holda) va 1 yil davomida mazkur qimmatli qog'ozlarga egalik qildi.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2024-y., 09/24/331/0421-son. <https://lex.uz/docs/-6972641>

² <https://lex.uz/docs/-5437603>

- Daromad solig'idan foyda $\rightarrow 100,0 \text{ mln so'm} * 12,0\% = 12,0 \text{ mln so'm}$
- Dividend foydasi $\rightarrow 0,002 \text{ mln so'm} * 7\,000 \text{ dona} = 14,0 \text{ mln so'm}$

Natijada, 100,0 mln so'm investitsiyadan 1 yilda 26,0 mln so'm daromad olinmoqda. Daromadlilik darajasi – yillik 26,0% (aksiyaning bozor qiymatidagi o'zgarishni hisobga olmagan holda).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son¹ qarorining 3-ilovasida "O'zRTXB" AJdagi 44,4% davlat ulushining 2,4%i mahalliy fond bozorida aksiyalarning ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi orqali taklif etilishi belgilandi.

Odatda, davlat ulushi ommaviy savdolarga chiqarilishidan oldin, uning taqsimlanmagan foydasi aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. 2024-yil 28-oktyabrda "O'zRTXB" AJ Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq, 1:4 nisbatan jamiyatning o'z mablag'lari hisobidan qo'shimcha aksiya chiqarish va aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror ro'yxatdan o'tganidan 5 kun o'tib aksiyalarni taqsimlash belgilangan.

Shunda har bir aksiyaga qo'shimcha yana to'rt dona aksiya olish imkoniyati mavjud bo'lib, qo'shimcha aksiyalar olishdan kutilayotgan foyda quyidagicha hisoblanadi (hozirda aksiyalar narxi 14 000 so'm, qo'shimcha aksiya olingandan so'ng aksiyaning narxi 3 500 so'mgacha tushishi ehtimoli hisobga olingan, biroq investorning 7 000 dona aksiyasi 35 000 donaga aylanishi hisobga olingan):

- $(0,0035 \text{ mln so'm} * 35\,000 \text{ dona}) - (0,014 \text{ mln so'm} * 7\,000 \text{ dona}) = 24,5 \text{ mln so'm}$

Shunday qilib, investitsiyadan yana qo'shimcha 24,5% daromad olish ehtimoli mavjud.

Shunga ko'ra, fond bozorida ochilgan SHIHdan 1 yil davomida jami 50,5% gacha daromad olish imkoniyati mavjud (soliq imtiyozidan foydalanilgan holda).

2-holat

Investor 2024-yil 1-noyabr sanasida "Imkon Finans Mikromoliya Tashkiloti" AJ korporativ obligatsiyalariga ish haqidan 100,0 mln so'm miqdorida investitsiya kiritdi (99 dona oddiy aksiya, har biri 1,0 mln so'mdan sotib olingan, broker va fond birjasining komissiyasi hisobga olingan holda) va 1 yil davomida mazkur qimmatli qog'ozlarga egalik qildi.

- daromad solig'idan foyda $\rightarrow 100,0 \text{ mln so'm} * 12,0\% = 12,0 \text{ mln so'm}$
- obligatsiyaning kupon daromadliliği $\rightarrow 28,0 \text{ mln so'm}$

Natijada, fond bozorida ochilgan SHIHdan 1 yil davomida jami 40,0% gacha daromad olish imkoniyati mavjud (soliq imtiyozidan foydalanilgan holda).

Kapital bozori jozibadorligini oshirishda shaxsiy investitsiya hisobvarag'ining ahamiyatini kengaytirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- shaxsiy investitsiya hisobvarag'i tushunchasi, uni ochish va undan foydalanish tartibi haqida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilikka tushuntirish ishlarini olib borish.

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6898706>

- “Xalqchil IPO” dasturi doirasida milliy kompaniyalar aksiyalarini erkin sotib olish imkoniyatini taqdim etish orqali shaxsiy investitsiya hisobvarag‘i uchun qimmatli qog‘ozlar tanlovini kengaytirish.
- shaxsiy investitsiya hisobvarag‘i imtiyozlarini xorij tajribasi asosida doimiy takomillashtirib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Goncharenko T.V., 2015. Современная практика операций коммерческих банков с ценными бумагами / Экономика и предпринимательство. 2015. № 2 (55): 998–1002.
2. Maqola: Goncharenko T.V., Podgornaya K.N. – “Индивидуальный инвестиционный счет: тенденции развития”, Научный результат. Экономические исследования. Т. 6. № 4. 2020. S. 54–62.
3. Maqola: Devlet-Geldy G.K., Armidonova A.A. – “Индивидуальные инвестиционные счета – новый инструмент российского финансового рынка”. “Гуманитарный вестник”, **3.2016**.
4. Индивидуальный инвестиционный счет – новация для розничных инвесторов в России. НАУФОР – Индивидуальный инвестиционный счет – новинка для розничных инвесторов в России. Национальная ассоциация участников фондового рынка. [Elektron resurs] Rejim dostupa: <http://www.naufor.ru/tree.iisconf.asp?n=11176>.
5. <https://new.openinfo.uz/facts/6/11650>.